

**“IKKI ESHIK ORASI” ASARIDA MODAL SOʻZLARNING OʻRNI VA
AHAMIYATI**

1-toifali oʻqituvchi Nozbuvi
Xalilova Nigora Rahmatullayeva

Oʻzbek adabiyoti shunday chamanzorki, uning boʻstonida gul koʻp, chechak koʻp. Bu boʻstonida bir- biriga oʻxshamaydigan, bir- birini takrorlamaydigan shoir va yozuvchilar avlodi qayta- qayta boʻy choʻzaverishi haqiqiy adabiyot muhlisini quvontiradi. Oʻzining ijod yoʻli, samimiy xarakteri va insoniy fazilatlariga yoʻgʻrilgan tengsiz ijodkorlardan biri Oʻtkir Hoshimovdir.

Yozuvchi Abdulla Qahhor, Said Ahmad kabi oʻtkir qalam sohiblarining tahsiniga va olqishiga sazovor boʻlgan. Oʻtkir Hoshimov asarlari shu kungacha badiiy mahorati jihatidan eng koʻp tahlil qilinadigan asarlar sirasiga kiradi. Biz bugungi maqolamizda adib ijodiga boshqacharoq yondoshmoqchimiz, yaʼni “Ikki eshik orasi” asarida qoʻllanilgan modal soʻzlar va ularning maʼnolari xususida soʻz olib boramiz, insha Alloh. Mavzuga oʻtishdan oldin modal soʻz nima, uning turlari haqida bilib olishimiz kerak.

Modal soʻzlar (lotincha: modalis — „oʻlchov“, „usul“) — soʻzlovchining oʻz fikriga turlicha munosabatini anglatadigan va fikrning aniqligi, rostligi, gumonli yoki shartlilikini ifodalash uchun xizmat qiladigan soʻzlar; shaklan oʻzgarmasligi bilan tavsiflanadi, gap boʻlagi vazifasida kelmaydi, gapning boshqa boʻlaklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi; butun fikrga yoki uning biror qismiga taalluqli boʻlib, odatda, kirish soʻz boʻlib keladi. Modal soʻzlar 2 katta guruhga boʻlinadi: fikrning aniqligini ifodalovchi modal soʻzlar, bularga rostlik, tasdiq-ishonch, qatʼiylikni bildiruvchi soʻzlar (darhaqiqat, haqiqatan; albatta, shubhasiz, soʻzsiz va shahrik.) kiradi. Fikrning noaniqligini ifodalovchi modal soʻzlar, bularga taxmin, gumon, tussmol kabi maʼnolarni ifodalovchi soʻzlar (shekilli, chogʻi, chamasi; ehtimol, balki, aftidan va boshqalar) kiradi. Modal soʻzlar nutqda pauza, yozuvda vergul bilan ajratiladi. Modal soʻzlar takror qoʻllansa yoki emotsional mazmunli soʻz bilan birga kelsa, maʼno kuchayadi. Soʻzlashuv nutqida birdan optik modal soʻz qoʻllanishi mumkin. Modal soʻzlarni fikrning oʻzaro munosabati (xullas, demak, binobarin, qisqasi, umuman, masalan, chunonchi, jumladan, aksincha, avvalo, avvalambor, nihoyat), eʼtiborni tortish (aytganday, aytmoqchi, zotan), taʼkid (xususan, ayniqsa), emotsional maʼno (koshki, zora, yaxshiyamki, xayriyat, attang, afsuski, ajabo) kabilarni anglatuvchi modal maʼnoli soʻzlardan farqlash kerak. Modal soʻzlar va modal maʼnoli soʻzlar oʻzaro yaqin boʻlib, ularning har biriga xos belgi-xususiyatlarni aniqlash funksional grammatikaning dolzarb vazifalaridandir.[1].

Oʻtkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” asarida eng koʻp *shekilli, xayriyat, ehtimol, nihoyat, xullas, demak, avvalo, albatta, nahotki* singari modal soʻzlardan foydalangan. Masalan, *shekilli* modal soʻzi ishtirok etgan gaplarga nazar tashlaylik:



“Ishbuzuqilikka o`zlari bosh-qosh bo`libdilar , shekilli, o`rtoq Shomurodov?”²⁶

Yoki :”Mosh ham ammamni ko`rdi, shekilli, tipirchiladi”.²⁷

Biz bu gapni “Mosh ammamni ko`rdi va tipirchiladi” deb tahlil qilsak , asardagi mushuk ammani ko`rib tipirchilab qolganini tushunamiz. Shekilli modal so`zi esa gapga gumon, taxmin ma`nolarini qo`shadi va bu gap tasirchanroqdir.

“Xayriyat, bu gal ham kuymadi”²⁸.

Bu gapdagi “xayriyat” so`zi modal so`zdir. Bu modal so`z quvonish va shukrona keltirishni bildiradi. Bu gal ham kuymadi gapida kuymaganlik haqida oddiy xabar maylidagi axborot berilsa, *xayriyat* modal so`zining qo`llanilishi gapga kuymaganligidan quvonish, mamnun bo`lish kabi ma`nolarni ifodalaydi.

“Umuman, sizdaqa brigadirdan voz kechish kerak”²⁹.

Umuman gap mazmuniga xulosalash va fikrni yakunlash ohangini oib kiradi. Bu gapda ham modal so`zi ishlatish orqali yozuvchi ma`lum bir masala yuzasidan o`z fikrini yakunlaganini ko`rishimiz mumkin.

“Ehtimol, kuz ham, yog`ingarchilik ham vaqtida boshlangandir”³⁰.

Yuqoridagi gapda gumon ma`nosini bildiruvchi *ehtimol* modal so`zi ishtirok etgan. Qizig`i shundaki, gap yakunida –dir gumon yuklamasi bilan gap yakunlangan. Bitta gap tarkibida ham gumon ma`nosini ifodalaydigan modal so`zning, ham gumon yuklamasining yonma-yon kelishi gapning umumiy mazmunidagi gumon ma`nosini kuchaytirib bergan.

Gaplarda modal so`zning kelishi asar pafosini kuchaytirib beradi va inson hissiyotlarini yaqqol , ta`sirchan holda o`quvchi qalbiga olib kiradi. Biz yuqoridagi gaplardan modal so`zlarni chiqarib tashlasak Grammatik jihatdan hech narsa yo`qotmasligimiz mumkin. Ammo ruhiyat jihatdab asarda , va ayniqsa badiiy asarda nutqning ta`sirchan va o`quvchi qalbiga yuqadigan bo`lishini ta`minlaydi

²⁶ “Ikki eshik orasi” 5-bet

²⁷ “Ikki eshik orasi” 22-bet

²⁸ “Ikki eshik orasi” 22-bet

²⁹ “Ikki eshik orasi” 6-bet

³⁰ “Ikki eshik orasi” 115-bet

